

UMUMTA'LIM MAKTABLARDA GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani 14-sonli umumiy o'rta
ta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchisi
Rashidov Toshtemir Rajabboy O'gli

Annotatsiya: Ushbu maqola umumta'lim maktablarida tabiiy geografiya darslarida qiziqarli va interfaol metodlardan foydalanib o'quvchilarni fan va dunyoga qiziqishini orttirish, darslarning samaradorligini rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni haqida so'z yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается использование интересных и интерактивных методов на уроках естественной географии в общеобразовательных школах для повышения интереса учащихся к предмету и окружающему миру, а также роль интерактивных методов в повышении эффективности уроков.

Abstract: This article discusses the use of interesting and interactive methods in natural geography lessons at general education schools to increase students' interest in the subject and the world around them, as well as the role of interactive methods in enhancing the effectiveness of lessons.

Kalit so'zlar: tabiiy geografiya, metodika, interfaol metodlar, interaktiv metod, o'yin metodlari, amaliy metodlar, vizual metod, muommoni yechish metodi.

Ключевые слова: естественная география, методика, интерактивные методы, интерактивный метод, игровые методы, практические методы, визуальный метод, метод решения проблемы

Keywords: physical geography, methodology, interactive methods, interactive method, game methods, practical methods, visual method, problem-solving method





O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan geografiya ta'limida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Maktab geografiyasining mazmuni va tuzilishida bir qancha tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ba'zi o'quv fanlari maktab dasturidan olib tashlandi, ayrimlarining mazmuni o'zgartirildi, ayrim fanlar yangidan yaratilib, o'quv tizimiga joriy qilindi. O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risidagi qonun»ni qabul qilinishi munosabati bilan o'quv qo'llanmalari va darsliklarga bo'lgan talablar keskin o'zgardi. Barcha fanlarda bo'lganidek maktab geografiyasi fanida ham tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Geografiya predmetlarining dasturi va tuzilishi O'zbekiston maktab ta'limi tizimida sodir bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda qaytadan ko'rib chiqildi. Shu munosabat bilan geografiya o'qitish metodikasida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Geografiya o'qitish metodikasida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash munosabati bilan o'qitish metodikasida ham qator o'zgarishlar sodir bo'ldi[1].

Geografiya ta'limi deganda o'quvchilarga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy komplekslarning tuzilishi va asosiy qonuniyatlari haqida bilimlar beradigan geografiya fanlari tizimiga aytiladi. Geografiya ta'limi metodikasi esa maktablarda va kasb-xunar kollejlariida tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya va boshqa maxsus geografiya fanlarini o'qitish jarayonini o'rganadigan va pedagogika fanlari tizimiga kiradigan fandır. Geografiya ta'limi metodikasi umumiy didaktika va tarbiya nazariyasi bilan chambarchas bog'langan. Didaktika fani ta'lim berish va tarbiya jarayonini umumiy qonuniyatlarini, ta'lim mazmunini tadqiq qiladigan nazariy fandır. didaktika fani aniq o'quv fanlarini o'qitish metodikasi bilan shug'ullanmaydi. Ayni vaqtda har bir o'quv fani o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning ayrimlarini maqsadi nazariy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish (geografiya, kimyo), ayrimlari faqat ko'nikmalarni (chet tillar), boshqalari esa borliqqa estetik munosabatda bo'lishini shakllantiradi (tasviriy san'at). Shuning uchun alohida fanlarni o'qitish metodikasi bilan xususiy didaktika fanlari shug'ullanadi. Mazkur fanlar qatoriga «Geografiya o'qitish metodikasi» fani ham kiradi[2]



Maktabdagi o'quv jarayonining sifati juda ham ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari asosiy ahamiyatga egadir. An'anaviy ta'limda interfaol texnologiyalarning bir usuli yoki ko'pi bilan ikki usulidan foydalaniladi. Masalan, o'qituvchi mavzuni har dars o'quvchiga so'zlab beradi. O'quvchi esa tinglovchi sifatida tinglaydi. Holbuki, bugungi kunga kelib an'anaviy ta'lim o'zini yaxshi oqlamayotganligi ko'rinib turibdi. Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol Aniq va tabiiy fanlar ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega[3].

Geografiya fanini o'qitishda interfaol usullar, o'quvchilar bilan interaktiv tarzda ishlash va ularning o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Bu usullar o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish va geografiya bilimini amaliyotga o'tkazishga imkon beradi. Quyidagi interfaol usullar geografiya fanini o'qitishda foydalanilishi mumkin bo'lgan eng muhim usullardir:

1. Interaktiv darslar: Bu usulda, o'qituvchi o'quvchilarga interaktiv dars materiallarini taqdim etadi. Bu materiallar, animatsiyalar, videolar, grafikalar va boshqa interaktiv elementlardan iborat bo'lishi mumkin. O'quvchilar bu dars materiallarini o'zlarining o'zgartirishlari va tahlillari bilan ishlay oladilar.

2. Virtual ekskursiyalar: Geografiya fanida o'rganish uchun mehnat qilish kerak bo'lgan joylarga bormaslik o'quvchilarning tushunishini cheklash mumkin. Virtual ekskursiyalar esa talabalarni dunyoning turli joylariga olib boradi. Ular virtual sayohatlar orqali turli mamlakatlarda, shaharlarda yoki tabiiy ob'ektlarda aylanib, o'sha joylarni ko'rish va o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.



3. Ilmiy tadqiqotlarga qatnashish: Geografiya fanini o'rganishda o'quvchilarning tadqiqotlar bilan ishlashlari juda muhimdir. Interfaol usullar orqali, o'quvchilar ilmiy tadqiqotlarini amaliyotga o'tkazish va bu bilim sohasidagi so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

4. Geografiya o'yinlari: O'yinlar o'quvchilarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda samaralidir. Geografiya o'yinlarida talabalar mamlakatlar, shaharlar, tabiiy ob'ektlar va boshqa geografiya mavzulari haqida savollar yechish, xaritalarni tuzish va boshqa amaliy mashg'ulotlar bilan ishlay oladilar.

5. Projektlar: O'quvchilar geografiya fanini o'rganish uchun projektlar tayyorlashadi. Bu projektlar mamlakatlar, tabiiy resurslar, iqlim va boshqa geografiya mavzulari haqida tahlil, taqdimot yoki boshqa shaklda bo'lishi mumkin. Bu usul o'quvchilarning tahlil qilish va taqdimot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Geografiya fanini interfaol usullar orqali o'qitishning ahamiyati bir necha muhim sabablarga asoslangan. Birinchidan, interfaol usullar o'quvchilarni o'rganish jarayonida qiziqish va ilg'orlikni saqlab qolishiga yordam beradi. Interaktiv darslar, virtual ekskursiyalar va geografiya o'yinlari o'quvchilarni amaliyotga qaratish imkonini beradi va ularning o'rganish jarayonida motivatsiyani oshiradi. Bu usullar talabalar bilan interaktiv tarzda ishlash imkoniyatini beradi va ularning o'zlarini o'rganish jarayonida faol qatnashishini ta'minlaydi[4].

Geografiya ta'limi metodlari — bu o'qituvchilar va o'quvchilarning geografik bilimlarni samarali o'rganishi va o'rganishini ta'minlash uchun ishlatiladigan usullar to'plamidir. Geografiya ta'limida qo'llaniladigan asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

1. An'anaviy o'qitish metodlari:
2. - Darslik asosidagi ta'lim: O'quvchilarga darsliklar orqali ma'lumot berish.
- Ma'ruza: O'qituvchi tomonidan ma'lum bir mavzuda bilim berish.
2. Interaktiv metodlar:



3. - Tadqiqot usuli: O'quvchilar mustaqil ravishda geografik muammolarni o'rganadilar.

- Guruhli ish: O'quvchilar guruhlarga bo'linib, muayyan vazifalarni bajaradilar.

3. Vizual metodlar:

- Xaritalar va diagrammalar: Geografik ma'lumotlarni ko'rish va tushunishni yaxshilash uchun xaritalar va diagrammalardan foydalanish.

- Multimedia vositalari: Video, slaydlar va boshqa vizual materiallar orqali ta'lim.

4. Praktik usullar:

5. - Ekspediciyalar va ekskursiyalar: O'quvchilarni amaliy tajribalar orqali geografiya bilan tanishtirish.

- Laboratoriya ishlarini o'tkazish: Geografik hodisalarni tajribalar orqali o'rganish.

6. O'yin-jarayonlari:

7. - Geografik bilimlarni rivojlantirish uchun turli xil o'yinlar, viktorinalar va simulyatsiyalar.

6. Muammoni hal qilish metodi:

- O'quvchilarga real hayotdagi geografik muammolarni hal qilish vazifalari beriladi, bu esa ularning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi.

Geografiya ta'limi metodlarini tanlashda talabalar qobiliyatlari, darsning mavzusi va maqsadlariga qarab moslashtirilishi lozim. Bu jarayon o'zaro aloqani kuchaytiradi va o'qitishga qiziqishni oshiradi[5].

7-sinf Materiklar va Okeanlar tabiiy geografiyasining amaliy mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha bir qancha metod(nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o'quvchilar ongini shakllantirishga, muammoli vaziyatlarni yechishga doir)lar berilgan. Biz ular bilan quyida tanishib olamiz. 1. Nazariy bilimlarni mustahkamlashga doir topshiriqlar. Topshiriq

“Xaritadan mobilizm gipotezasini isbotlang.” a) O‘quvchilardan 4 daqiqa davomida berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozish so‘raladi. b) Vaqt tugagach, vaqt tugaganligi ma‘lum qilinadi. Biroq 1 minut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug‘iladi. c) O‘quvchilardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to‘rt o‘quvchi o‘z yozganlarini o‘qib bergach, o‘qituvchi qolgan o‘quvchilardan aytilganlariga o‘xshamaydigan fikr kimda bo‘lishini so‘raydi.

2.O‘quvchilar ongini shakllantirishga doir amaliy topshiriqlar. Topshiriq. Berilgan atamalarni izohlang. 1.Materik 4.Afrika 7.Ko‘l 2.Qit’a 5.Okean 8.Daryo 3.Yevrosiyo 6.Dengiz 9.Avstraliya 3.Muammoli vaziyatlarni yechishga doir topshiriqlar. O‘quvchilar A nuqtadan 180 azimut bilan 120 m yurishdi. U joyni B nuqta deb belgiladi. B nuqtadan 270 azimut bilan 120 m yurishdi. U joyni D nuqta deb belgilashdi. D nuqtadan 360 azimut bilan yurishdi. U joyni E nuqta deb belgilashdi. O‘quvchilar ayinglar-chi, ular o‘z joylariga necha gradus azimut bilan yursa yetib olishadi[6].

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, umumta’lim maktablarda geografiya fanining amaliy mashg‘ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarni bu fanga qiziqishini orttiradi va darsini sifatli bo‘lishini ta’minlaydi. bo‘yicha bir qancha metodlar xususan, nazariy bilimlarini mustahkamlashga, o‘quvchilar ongini shakllantirishga, muammoli vaziyatlarni yechishga doir metodlardan foydalanilsa, o‘quvchilarda yodda tutish, har xil vaziyatlarda o‘z pozitsiyasini egallash, tasvirlash, bilimini mustahkamlash, ijodkorlik kabi bir qator ijobiy xarakterlarni rivojlantiradi. Ushbu interfaol metodlar qo‘llanishi natijasida maktab o‘quvchilarining ham nazariy ham amaliy bilimlarini mustahkamlash va geografiya dasining qiziqarli o‘tishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/04/NamDU-ARM-3667-Geografiya_oqitish_metodikasi.pdf



2. Eshquvatov, S. (2023). GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(19), 49-51.

3. GEOGRAFIYA 2023/№2 133 UDK: 378. 14: 91 (075.8) DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a150 7-SINF MATERIALAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASI FANIDAN AMALIIY DARSLARDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH Isayev Akbarjon Abdulhamidovich¹ , Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li²

4. Esbergenova, S. (2023). GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. *Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования*, 2(11), 39-40.

5. Xalimova, Z. (2024). Geografiya ta'limi metodlari. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 2(10), 669-676.

6. GEOGRAFIYA 2023/№2 133 UDK: 378. 14: 91 (075.8) DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss2/a150 7-SINF MATERIALAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASI FANIDAN AMALIIY DARSLARDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH Isayev Akbarjon Abdulhamidovich¹ , Arabboyev Asliddin Rafiqjon o'g'li²